



THE DEPICTION OF THE PROPHET'S ATTRIBUTES IN THE WORKS OF SOFI OLLOYOR AND ITS SOCIO-ETHICAL SIGNIFICANCE

F.Kh. Tojiyev

Lecturer at the Institute of Pharmaceutical Education and Research

Independent Researcher at Tashkent State Transport University

Email: Todjiyev95@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufi saint, prophet, "The One Who is Impotent", perfect person.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: Through the thinking of Sufi Alloyor, the qualities of the prophet are described in a poetic and artistic way through the information contained in the hadiths. The article philosophically analyzes the information of the scholar about the lives of the prophet. The study reveals the stronger influence of poetic description on the reader than prose description in characterizing the prophet.

SO'FI OLLOYOR IJODIDA PAYG'AMBAR SIFATLARI BAYONI VA UNING IJTIMOYIY-AXLOQIY AHAMIYATI

F.H. Tojiyev

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti o'qituvchisi

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: Todjiyev95@gmail.com

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor, payg'ambar, "Sabotul ojizin", komil inson.

Annotatsiya: So'fi Olloyorning tafakkuri orqali payg'ambar sifatleri hadislarda kelgan kelgan ma'lumotlar orqali shery-badiiy tarzda bayon etilgan. Maqolada olimning payg'ambar siyaratlariga oid ma'lumotlar falsafiy tahlil qilingan. Tadqiqotda payg'ambarni sifatlashda nasriy bayondan nazmiy bayonning o'qiguvchiga kuchliroq ta'siri haqida bilib olinadi.

ОПИСАНИЕ КАЧЕСТВ ПРОРОКА В ТВОРЧЕСТВЕ СОФИ ОЛЛОЙОРА И ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Ф.Х. Тоджиев

*Преподаватель Института фармацевтического образования и исследований
Независимый исследователь Ташкентского государственного транспортного
университета*

Email: Todjiyev95@gmail.com

Ташкен, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: суфийский святой, пророк, «Тот, кто совершенный человек.</p>	<p>Аннотация: В размышлениях суфия Аллояра качества пророка описываются поэтически и художественно через сведения, содержащиеся в хадисах. В статье философски анализируются сведения учёного о жизни пророка. Исследование выявляет более сильное влияние поэтического описания на читателя, чем прозаического, в характеристике пророка.</p>
--	---

Kirish. Islom madaniyatida payg‘ambar shaxsi diniy - axloqiy me‘yorlar majmuining markaziy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi: u nubuvvat va risolat mazmunida insonga ilohiy hidoyatni yetkazuvchi, amaliy hayotga namuna bo‘luvchi komil inson sifatida talqin etiladi. Shu ma’noda payg‘ambarni ulug‘lash oddiy marosimiy ehtirom emas, balki jamoaviy ma’naviy tartibning, qadriyatlar merosining va axloqiy me‘yorlar barqarorligining falsafiy asosidir.

O‘zbek falsafiy-didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo‘lmish ushbu asarda tasavvuf ta’limotining ma’naviy-axloqiy masalalarini keng yoritish bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan. So‘fi Olloyorning ‘abotul ojizin” asari odamlar orasida “Mag‘zi Qur’on” sifatida e’tirof etilgan.

So‘fi Olloyorda payg‘ambar sifatlari faqat metafizik komillik ramzi emas, balki jamiyatda qadriyatlarni uzatish (transmissiya), ma’naviy nazorat va ijtimoiy muvofiqlashuv mexanizmlarini barqaror qiladigan normativ aksiologik omildir. Sunnatga taqlid etish shaxsiy taqvonni mustahkamlaydi, taqvo esa ijtimoiy ishonch va hamjihatlikni tiklaydi. Bunday zanjir mustahkamlangan sari ma’naviy muhit poklanib, “yaxshi amal -yaxshi tartib-yaxshi jamiyat” kabi sabab–natija bog‘lanishi yuzaga keladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda siyratga oid kitoblar o‘rganilib chiqilib, solishtirma qilindi va So‘fi Olloyorning ma’lumotlari tahlil qilindi. So‘fi Olloyor ham o‘z asarlarida Muhammad alayhissalomning sifatlari haqida qimmatli ma’umotlar keltirib o‘tgan. Siyratga oid manbalarda (masalan, Muborakfuriyning “Ar-Rohiqul mahtum”i, Ahmad Lutfiy Qozonchi va Alixonto‘ra

Sogʻuniy asarlari) paygʻambar hayoti turli ilmiy uslublarda bayon etilsa, Soʻfiy Olloyor ijodi bu meʼyoriy yadroni irfoniy – tazkiyaviy tarbiya mantigʻiga jips bogʻlaydi: u paygʻambar sifatlarini (sidq, amonat, fatonat, tablil, maʼnaviy rahnamolik)ni zohiriy hikoya qilish bilan cheklab qoʻymay, ularni shaxs kamoloti, nafs islohi, ijtimoiy masʼuliyat va hamjihatlikni kuchaytirishning amaliy mezonlari sifatida tafsirlaydi. Maqolada olimning nazmiy shaklda yozilgan baytlari nasriyda tushintirib oʻtildi hamda falsafiy jihatlari ochib berildi.

Natija. Soʻfi Ollorning ilmiy merosini tahlil qilar ekanmiz undan juda koʻplab falsafiy xulosalar olamiz. Quyida olimning misralarini koʻrib oʻtamiz:

Durudi beaded hodiya dingʻa,

Rasuli «rahmatan lilolamin»gʻa[1].

Shoir “beaded” soʻzini ishlatib, inson sevgisi yoki ehtiromi bilan oʻlchanmaydigan, cheksiz ilohiy marhamatni ifodalaydi. Bu, asosan, ilohiy muhabbat falsafasi bilan bogʻliq. Paygʻambar nafaqat bir xalqning emas, balki butun mavjudotning rahmati sifatida koʻriladi. “Hodiya dingʻ” – “dunyoning yoʻl koʻrsatuvchisi” degan ifoda inson hayotining maqsadi va yoʻnalishini bildiradi. Falsafiy maʼnoda bu maʼnaviy yoʻl-yoʻriq va haqiqat sari yetakchilik ramzidir. Shoir uchun insoniyatning najoti ilohiy haqiqatni tanish va unga ergashishdadir. “Rahmatan lil-olamin” iborasi kosmik rahm-shafqat tushunchasini ifodalaydi.

1 Insoniyat hidoyatining manbai sifatida paygʻambarni ulugʻlaydi;

2 Ilohiy rahmatning cheksizligini taʼriflaydi;

3 Tasavvufiy maʼnoda borliqning mohiyatini rahmat va muhabbatda koʻradi.

Ikkinchi misradagi “rahmatan lil olamin” kalimalari Qurʼondagi “(Ey Muhammad alayhissalom) darhaqiqat, Biz Sizni barcha olamlarga faqat rahmat (yaʼni, Ollohning rahmati – jannatiga yetaklaguvchi) qilib yubordik” [2]. Islom manbalarida shuni koʻrishimiz mumkinki, har kitob yozilganda kitobning avvalboshida Allohga, paygʻambarga hamd aytish bilan boshlanadi. Bu holat Soʻfi Olloyorning ilmiy meʼrosini ham chetlab oʻtmagan.

Xudoning doʻsti muxtorul qurayshiy,

Mudom ummat uchun talx erdi ayshi .

Maʼnosi: bu misrada nabiyning Quraysh qabilasidan ekanligi, Ollohning doʻsti Muhammad sollallohu alayhi va sallam xayru fazilatda Quraysh qabilasining eng tanlangan kishisi ekanligi, ummatning toʻgʻri yoʻlga kirishi uchun barcha musibatlarga chidamliligi bayon qilinmoqda. “Muxtorul Qurayshiy” soʻzi ilohiy tanlov gʻoyasini bildiradi. Falsafiy maʼnoda bu shuni anglatadiki: har bir mavjudotning yaratilishida maqsad bor, lekin ayrim zotlar bu maqsadni mukammal tarzda ifoda etish uchun tanlanadi. Paygʻambar ilohiy nur, haqiqat timsoli sifatida, insoniyat uchun yoʻl-yoʻriq boʻlish uchun tanlangan. “Mudom ummat uchun talx erdi ayshi” bu baytning yuragi. Olim bu orqali paygʻambarning hayoti fidokorlik yoʻli boʻlganini taʼkidlaydi.

Falsafiy jihatdan bu haqiqiy baxtning manbai nafsning rohatida emas, balki boshqalarga xizmatda ekanini bildiradi. Bu etik va ma'naviy kamolot falsafasining markaziy g'oyasi—"ozodlik fidokorlikda". Tasavvufda bu holat "ishqning qurbonligi" deb ataladi: inson ilohiy muhabbatga yetishish uchun o'z "ayshi"ni (nafs istaklarini) "talx" (achchiq) qiladi.

Bu ilohiy va insoniy muhabbat birligining timsoli. "Talx erdi ayshi" – bu nafaqat tarixiy voqelik, balki axloqiy ideal. Shoir shuni demoqchi: komil inson o'z hayotini boshqalarga bag'ishlab yashaydi. Shaxsiy huzur-halovatni emas, boshqalarning najotini ustun qo'yish payg'ambarlik axloqidir. Bu baytda u "Xudoning do'sti" sifatida ilohiy haqiqat bilan birlashgan, ammo baribir insoniyat orasida yashab, ularning dardini o'z dardidek his qilgan.

Bu "muxtorlik" shunchaki nasabdan emas, ruhiy tozaligi va komilligi tufayli tanlanganlikni bildiradi.

Emas mavjud aningdek gavhari pok,

Dalil uldurki kiydi toji "lavlok".

Tasavvuf falsafasidagi "Nur Muhammad" konsepsiyasi va "Komil inson" nazariyasini birlashtirgan she'riy durdona hisoblanadi. Tasavvuf falsafasida "Nur Muhammad" (ya'ni Muhammad nuri) butun borliqning asl manbai deb qaraladi.

Bu g'oya Qur'on va hadisidagi quyidagi ma'nolardan kelib chiqadi: "Men yaratilishdan avval Nur edim." "Alloh avval Nur-i Muhammadni yaratdi, so'ng undan butun mavjudotni paydo qildi." Shuning uchun tasavvufda: Olloh vujudi mutlaq, Muhammad vujudning birinchi tajallisi, nuri, mohiyati. Payg'ambar Muhammad komil insonning mukammal namunasi. Baytda komil insonning belgisi "Gavhari pok" – bu axloq, ruh, va mohiyatning sofliqi, ya'ni ruhiy komillik belgisi. "Toji Lavrok" – bu ilohiy maqom, ya'ni ruhiy yuksalish natijasi.

Shoir shunday demoqda: "Uning komilligi shunchalik toza va yuksakki, Allohning o'zi unga sharaf toji kiydirdi." Bu toji haqiqatni anglash, Haqqa yetish ramzidir. Inson faqat nafsini poklab, qalbini nurga to'ldirgachgina shu darajaga yaqinlashishi mumkin. Metafizik mohiyat "Emas mavjud aningdek" Hech bir mavjudot uning darajasidagi nuriy sof mohiyatga ega emas. Ontologik jihatdan: Butun mavjudot Uning nuri soyasida mavjud; shuning uchun "emas mavjud aningdek" degan hukm borliq ierarxiyasining eng yuqori pog'onasiga ishora qiladi.

O'shal shohanshahikim sham'i dindur ,

Aning parvonasi Ruhul—Amindur.

Bu misra payg'ambar shaxsini ilohiy, kosmik va ruh jihatdan eng yuksak darajada ulug'lovchi falsafiy-tasavvufiy madhiyadir. Uning har bir bayti tasavvuf falsafasidagi asosiy tushunchalar nur, komil inson, tajalliy, rahmat, ilohiy maqomni mujassamlashtiradi. Ma'nosi: "U shunday shohlar shohiki, din sham'idir, Uning parvonasi esa Ruhul-Amin (Jabroil a.s.)dir." Falsafiy talqinda Payg'ambar dinning o'zi emas, dinning ma'nosini yorituvchi nurdir. "Parvonasi

Ruhul-Amin” ya’ni, Jabroil a.s. ham uning nuri atrofiga parvona singari charx uradi. Bu ruhiy markaz nazariyasi: borliqdagi barcha mavjudot, hatto farishtalar ham uning nuri atrofiga aylanadi.

Falsafiy g’oya shuki payg‘ambar borliq markazi, ilohiy nur manbai ma’rifat sham’idir. Tasavvufda bu “Nur Muhammadiy” konsepsiyasining eng ifodali misrasidir.

Dedi Ma'bud aning otin«Muhammad»

Maqomatig‘a hargiz etmadi had .

Ma’nosi: Ma’nosi: “Alloh uning ismini Muhammad deb qo‘ydi, Uning maqomiga hech qanday chegara (had) qo‘ymadi.” Falsafiy tahlilda Olloh uning nomini shaxsan o‘zi berishi ilohiy tanlov va mabda’ (boshlanish) ramzi. “Etmadi had” — ya’ni uning martabasi cheksiz, inson aqli yoki farishtalar idroki bilan o‘lchanmaydi. Bu “komil inson” falsafasining cho‘qqisidir. Muhammad vujud zanjirining eng yuqori nuqtasi, ilohiy tajallining eng mukammal shaklidir.

Tushurmay er yuziga soyasini,

Eturdi Arsh uyiga poyasini.

Ma’nosi: “U yer yuziga soyasini ham tushirmasdi, Uning oyog‘i Arsh (ilohiy taxt) uyiga yetgan edi.” “Soyasining yo‘qligi” nuriy mavjudlik ramzi: u moddiy emas, nur sifatida zohir. (Nur soya tashlamaydi.) “Arsh uyiga poyasi” ruhiy yuksaklik, ilohiy yaqinlik ramzi. U Allohga shunchalik yaqin ediki, u “qoba qawsayn” darajasiga yetgan (ya’ni, ikki kamon masofaside). Bu yerda shoir mujassam nur va ilohiy tajalliy konsepsiyasini ifoda etmoqda: Muhammad ilohiy nurning insonga aylangan shakli.

Qadam bosqon manozil erdi pur atr,

Sahobul—abyaz erdi boshida chatr.

Ma’nosi: “U bosgan joylar atrofga xushbo‘y hid taratardi, va uning boshida oq bulut soyabon singari turardi.” Bu tasvir mavjudotning uning borlig‘iga itoatini bildiradi. Tabiat ham uning nuri bilan yashaydi, moddiy olam uning ruhiy barakasiga to‘la. Bu kosmik uyg‘unlik falsafasi butun koinot Payg‘ambar nuriga bo‘ysunadi.

Bu vahdatul vujud (borliq birligi) g‘oyasining she’riy ifodasidir.

Jamoli ne'mati matlubi kavnayn ,

Kamolidin muyassar«qoba qavsayn» .

Ma’nosi: “Uning jamoli ikki olamning orzusi, Unga “qoba qavsayn” (Allohga eng yaqin) darajasi nasib etgan.” Bu “ruhiy yuksalishning oxiri”dir inson (komil inson) Haq bilan birlashish darajasiga yetadi. Bu insonga ilohiy tajallining imkoniyatini bildiradi.

Sharofat mundin o‘tmas sunnatu farz

Yurusa to xuruji Dobbatul arz.

Ma’nosi: “Bu sharofatdan o‘tuvchi narsa yo‘q uning sunnati farz bo‘ladi, To yer jonivori (qiyomat belgisi) chiqmaguncha bu hukm saqlanadi.” Shoir bu yerda axloqiy komillik falsafasini

ko'rsatadi. Ya'ni, Payg'ambarning yo'li faqat tarixiy diniy qonun emas, abadiy ruhiy yo'ldir. "Sunnati farz" – Uningsiz kamolot yo'q demakdir. Bu bayt insoniyat uchun abadiy ma'naviy yo'l-yo'riq konsepsiyasini ifodalaydi Payg'ambar komillik yo'lini abadiylashtirgan zot.

Hama dindin bo'lubdur dini bolo,

Guvohi hazraty Vojib Taolo.

Ma'nosi: "Barcha dinlar orasida uning dini yuksak, Bunga guvohning o'zi Alloh taolodir." Vahdatul adyan (dinlarning birligi) falsafasiga ishora: Barcha haq dinlar aslida Muhammadiy haqiqatda birlashadi. Chunki bu nur barcha vahiyning ildizi, barcha dinlarning ma'naviy markazi Muhammad nuridir, u vahiy zanjirining yakuni va mukammali hisoblanadi.

Aning avsofini yo'q intihosi,

Nag'u, etmas desa vasfin Xudosi.

Ma'nosi: "Uning sifatleri intihosiz, Xudo uni to'liq vasf qilmadi."

Falsafiy talqinda bu ilohiy cheksizlik g'oyasiga ishora. Muhammadning ruhiy maqomi Allohning rahmatidan bevosita kelib chiqadi, shuning uchun uni so'z yoki aql bilan to'liq idrok etish mumkin emas. Bu ilohiy haqiqat insoniy shaklda tajalliy etgani, ya'ni Haqiqatu Muhammadiyya konsepsiyasining eng yuksak bayonidir.

Xudoning rahmati bo'lsun damodam

Aning avlodig'a, ashobig'a ham.

Muhammadiy nur tarixiy shaxs bilan tugamagan, u ashoblar, avlodlar va oriflarning qalblarida davom etadi. Bu nur vahiydan ma'rifatga, ma'rifatdan ruhiyatga o'tuvchi abadiy zanjirdir. Misrada Muhammad nur sifatida boshlanib, inson sifatida zohir bo'ladi, va yana Haqqa qaytadi. Bu tasavvufiy borliq aylanishi, "avval nur, so'ng ruh, so'ng Haq bilan ittihad" yo'lidir. Ushbu misra butun tasavvuf falsafasining markaziy uch g'oyasini uyg'unlashtiradi:

-Nur Muhammadiy "Sham'i din", "soyasi yo'q" Muhammad — borliqning ibtidosi, nurning manbai,

-Kamil inson "Qoba qavsayn", "maqomig'a had yo'q" u— inson kamolining cho'qqisi, Haqqa eng yaqin mavjudot.

-Vahdatul vujud "Parvona Ruhul-Amin", "pur atr manozil" butun borliq uning nuri atrofida mujassam; Alloh–Inson–Koinot bir zanjir hisoblanadi.

Falsafiy jihatdan, bu shunday tahlil qilinadi:

Muhokama. Siyrat adabiyotining aksari nasriy bayonda tuzilgan bo'lsa, So'fi Olloyor bu an'anani irfoniy-nazmiy shaklga ko'chirib, ma'rifatni she'rning didaktik imkoniyatlari orqali "o'qiluvchi–tinglovchi" ongiga chuqurroq singdiradi: bunda she'riy bayon zikr, xotirlash va tafakkur jarayonlarini uyg'unlashtirgan holda Payg'ambar sifatlarining aksiologik mazmunini performativ shaklda jamiyat hayotiga tatbiq etishga xizmat qiladi. So'fiy Olloyor ijodida

shakllangan ma'naviy - axloqiy tarbiya konsepsiyasi botin va zohir uyg'unligiga tayanadi: ixlos, sidq va tavoze' kabi ichki fazilatlar amal, adolat va xizmat kabi tashqi me'yorlar bilan germenevtik bog'lanishda talqin qilinadi; sunnat esa "usvai hasana" sifatida shaxsiy kamolotning metodik gavhariga aylanadi. Shu manzarada ilm-ma'rifatga suyangan holda ulug'lar namunasi, milliy urf-odatlar va jamoaviy hurmat-ehtirom mezonlari normativ-pragmatik tizimga aylanib, qonundan oldin turuvchi ichki nazorat vijdonni uyg'otadi va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Demak, So'fi Olloyorda she'riy bayon oddiy estetik shakl emas, balki axloqiy ma'no yaratishning samarali uslubidir: u Payg'ambar sifatlarini nazariy ta'rifdan chiqarib, tajribaviy madaniyatga aylantiradi; zohiriy amalni botiniy maqsad bilan birlashtirib, shaxs-jamiyat mulohazasida mazmunli intizom hosil qiladi. Shunday qilib, shoirning yetukligi faqat mazmundagi irfoniy chuqurlikda emas, balki formadagi estetik-didaktik sintezda ham namoyon bo'lib, Payg'ambarga muhabbat va hurmatni amaliy xulq me'yoriga aylantiradi.

Xulosa. Demak, "Payg'ambar sifatleri bayoni" So'fi Olloyor poetikasida badiiy madh emas, balki qadam–ba–qadam kamolot manhajidir. U inson ongida axloqiy in'ikosni hosil qiladi, amalda esa qonundan oldin turuvchi ichki nazorat—vijdonni uyg'otadi, jamiyat miqyosida esa adolat, rahm–shafqat va mas'uliyatni umumiy tilga aylantiradi. Shu bois So'fi Olloyorning Payg'ambar sifatlariga bag'ishlangan bayonlari islomiy ilmiy an'anani irfoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirgan holda, zamonaviy ijtimoiy falsafada muhim bo'lgan uch vazifani bajaradi: ma'no (ma'rifat) yaratish, me'yor (axloq)ni mustahkamlash va ijtimoiy intizom (hamjihatlik)ni barqarorlashdir.

Olimning bu she'ri nafaqat diniy madh, balki inson va koinot o'rtasidagi metafizik munosabatni ochib beruvchi falsafiy e'tirofdir. Muhammad payg'ambar borliqning nuri va ma'nosi, uning yo'li inson ruhining kamolot yo'li, uning mavjudligi Haqning insonda zohir bo'lishi. Shuning uchun she'rda Payg'ambar "soyasi yo'q nur", "cheksiz maqom", "koinot sham'i" sifatida tasvirlanadi bu esa insoniyatga eng chuqur xabar: Haqqa eltuvchi yo'l insonning o'zida, uning nuri Muhammad nuridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Jumaxo'ja, I.Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr yarmi). T.: - 2020. B-193-195.
2. Qur'oni karim. Anbiyo surasi, 107-oyat.
3. Ali Qoriy. "Tazkiratul mavzuot". Hadisi qudsiydan.
4. Tojuddin Yolchiqu. Risolayi Aziza. Tuzuvchi B.Hasan. T.: Xalq merosi. 2000.
5. So'fi Olloyor. Sabotul ojizin, T.: 1991.